

KIMYO FANINI MAKTABDA O'QITISHDA ILG'OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

o'qituvchi. Yuldasheva Nigora Tursunboyevna,
talaba. To'lanov Asadbek,
talaba. Odiljonov Ikromali.

Namangan muhandislik-qurilish instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7225314>

Xozirgi kunda maktabda o'quv jarayonlarini tashkil qilish eski yildagi o'quv jarayonlariga qaraganda ancha takomillashgan. Shu vaqtgacha maktablarda o'quvchilarga bilim berishda, o'quvchilarga faqat tayyor bilimlar berib kelingan. Bunday usulning qo'llanilishi maktabda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, keng dunyoqarash, yaratuvchanlik qobiliyatini, tashabbuskorlikning shakllanishiga to'sqinlik qilar edi. Rivojlangan davlatlarda maktablardagi ta'lim jarayonlari o'quvchilarni o'zlari mustaqil fikrlashlariga, mustaqil o'rganib izlanishlariga, yangi g'oyalarning shakllanishiga zamin yaratadi. Maktab o'quvchilari o'zlari mustaqil g'oyalar yaratib yangi texnologiyalarning yaratilishiga mustaqil harakat qilishadi.

Bugungi kunda bizning mamlakatimizda ham o'quvchi yoshlarning bilim olishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. Maktablarda ham o'quvchilarning bilim saviyasini oshirish, o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning egallayotgan bilimlarini o'zlari izlanib topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, egallagan bilimlari asosida o'zlari mustaqil xulosalar chiqarishga yordam beradi. Oqituvchi bu jarayonda o'quvchining va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va dunyo qarashining shakllanishiga sharoit yaratadi shu bilan birga boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi.

Maktablarda o'quvchilarning amaliy va laboratoriya ishlariga alohida ahamiyat beriladi. Bundan ko'zlangan maqsad fan o'qituvchisining rahbarligi, nazorati ostida o'quvchida umumta'lim, kasbiy fanlar, kasb va ixtisosliklar bo'yicha nazariy hamda amaliy ishlarni mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, rivojlantirish, ijodkorligini oshirish, axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan mustaqil ishlash qobiliyatlarini yuksaltirishdan iborat. Har bir berilgan laboratoriya mashg'ulotida o'quvchi kitobda berilgan nazariy bilimni amalda ko'radi, kuzatadi va kerak bo'lsa o'z qo'li bilan tajribani bajaradi. Bunda albatta o'quvchi nazariy olgan bilimni eslab qolishi ancha kuchli bo'ladi.

Bugungi kunda bazi hudud maktablarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yetarli emas. Bu holatda laboratoriya mashg'ulotlarini olib borish uchun bazi bir qiyinchiliklar vujudga kelishi tabiiy. Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivojlangan davrda dars davomida laboratoriya mashg'ulotlarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan xolatda xam ko'rsatish va tushuntirib berish mumkin. Bunda o'quvchi og'zaki eshitgandan ko'ra kompyuter orqali jarayonni kuzatib ham yaxshi bilimga ega bo'lishi aniq. Nafaqat laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni balki, barcha nazariy darslarni ham kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda slaydlar, kinofilmlar tarzida tushuntirish o'quvchining bilim darajasini kengayishiga, dunyo qarashini o'zgarishiga olib keladi. Bu tarzda o'tilgan darslar bolani kimyo faniga qiziqishini ortishiga olib keladi.

Maktablarda 7-8-9-10- sinflarda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida mavzularga doir tajribalar berilgan. 11- sinflarda esa amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid masalalar yechish berilgan. Masalar yechilishini topishda kompyuterdan foydalanib tushuntirilsa o'quvchining tushunishi ancha osonlashadi va berilgan masala yeshimiga qarab o'zi mustaqil masalani yechimini topishi mumkin.

Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga o'zi mustaqil yangi mavzuni kompyuterdan foydalanib slaydini yaratib o'zlashtirib kelishini vazifa qilib beri mumkin. Bunda o'quvchi o'zi mustaqil tarzda mavzuga doir slayd yaratishi va mavzuni tushuntirib berishi. Bu xolatda o'quvchi mustaqil izlanadi, kompyuter savodxonligi ham rivojlanib, dunyoqarashi kengayib fanga bo'lgan qiziqishi ham ortadi.

Umuman olganda kimyo fani juda murakkab fan bo'lib, oddiy ma'ruza tarzida o'tilgan dars orqali o'quvchining fanni o'zlashtirishi murakkabdir.

Maktablarda kimyo fani 7-sinfdan boshlab o'qitila boshlaydi. O'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini shu vaqtdan boshlab uyg'otish kerak. Bu vaqtda o'quvchilarga nazariy bilimdan ko'ra amaliy bilimlar ko'proq qiziqish uyg'otadi.

Men o'zim o'qituvchi bo'lganim bois maktabda bilim berish chog'ida shunga amin bo'ldimki, o'quvchilarga nazariy o'g'zaki bilim berishdan, ko'ra, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish, nazariy bilimlarni esa kompyuter texnologiyasi yordamida slaydlar va kinofilmlar tarzida tushuntirish o'quvchida fanga bo'lgan qiziqishini ko'proq ortishiga olib keldi. O'quvchining shu mavzu yuzasidan mukammal bilimga ega bo'lishiga, mustaqil fikr yuritishiga va dunyoqarashini kengayishiga yordam beradi.

Har qanday olingan nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash o'quvchida shu olingan bilim yuzasidan ko'nukma va tajribalarni hosil qiladi. Har bir o'quvchi kimyo darsida olingan nazariy bilimlarini amaliyotda va tajribada ko'rishga

qiziqadi. Shuning uchun imkon qadar maktablarda o'quvchilarga nazariy bilim berish bilan birga amaliy tajribalar ham o'tkaziladi. Amaliy tajribalarni bolalar imkon qadar o'zlari mustaqil o'qituvchi yordamida bajarishsa, fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi va mavzuni mukammal o'zlashtirishlariga turtki bo'ladi.

References:

1. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A., "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" Amaliy tavsiyalar. – T: - Istedod jamg'armasi, 2008.
2. Olimov Q.T. "Pedagogik texnologiyalar" – Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.
3. Жураев, М. У., Каримов, А. М., & Ботиров, Э. Х. (2022). Scutellaria adenostegia Briq ўсимлиги таркибидаги апигенин (5, 7, 4'-тригидроксифлавон) ни ажратиб олиш ва тахлил қилиш. Ta'lim fidoyilari, 22(7), 178-179.
4. Ergashev, S., G'oyipov, A., & Alimuxamedov, M. (2022). KOMPOZITSION FENOL-FORMALDEGID OLIGOMERLARINING TARKIBINI NEFELOMETRIK USULDA O'RGANISH. Science and innovation, 1(A5), 424-430.
5. G'oyipov, A. (2022). TERMOPLASTIK POLIEFIRLAR ISHRIROKIDA MODIFIKATSIYALASHNING AFZALLIKLARI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(7), 191-197.
6. Azizbek, G., & Muzaffar, D. (2022). PRODUCTION OF POLYESTER BASED ON ADIPIC ACID AND DETERMINATION OF OPTIMAL COMPONENT RATIO OF COMPONENTS. Universum: технические науки, (7-4 (100)), 43-46.
7. Сайфиддинов, О., Ғойипов, А., & Рахмонов, Д. (2022). КОМПОЗИЦИОН ФЕНОЛ-ФОРМАЛЬДЕГИД СМОЛАЛАРИНИ ТЕРМИК ХОССАЛАРИНИ ЎРГАНИШ. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(23), 99-102.
8. G'oyipov Azizbek Raxmatilla o'g'li, Mamayunusova Manzura G'iyosiddinovna, Ergasheva Ziyoda Shuxratjonovna. (2022). QOVOQ MAG'ZINING TARKIBINI TADQIQ ETISH. «zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(24), 596-599.
9. Rakhmonov, D., Gayipov, A. (2022). STUDY OF COMPOSITION AND CRITICAL PARAMETERS OF DUST FROM LOCAL COTTON INDUSTRY. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY.